



Suv qalampir (*Persicaria hydropiper* L.)– biologik ahamiyati, dorivorlik xususiyatlari va xalq tabobatida qoʻllanilishi biologik ahamiyati

SH. I. Tolipova

Fargʻona dalat universiteti tayanch
doktoranti (PhD), fargʻona shahar
47- umumiy oʻrta taʼlim maktabi
Kimyo fani oʻqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan *Suv qalampir* (*Persicaria hydropiper* L) oʻsimligi boʻyicha mavjud ilmiy adabiyotlar, jumladan, oʻsimlik mahsulotlarini soʻliq uchun foydalari va shifobaxsh xususiyatlari, laboratoriya tadqiqotlari, dorivorlik xususiyatlari, xalq tabobatida qoʻllanilishi, biologic axamiyatlari toʻgʻrisida maʼlumot berildi.

Kalit soʻzlar: *Suv qalampir* (*Persicaria hydropiper* L) toron turkumi, tarkibida flavonoid, ramnazin, izoramnetin, rutin, kversitrin, giperozid, kversetin, kemfrevol, vitaminlardan [C](#), [K](#), [karotin](#), qandlar, organik kislotalar, oshlovchi moddalar, oʻtkir taʼmli moddalar.

Аннотация: В данной статье автором представлены сведения о растении Водяной перец (*Persicaria hydropiper* L) на основе имеющейся научной литературы, в том числе о пользе продуктов из этого растения для здоровья и его целебных свойствах, результатах лабораторных исследований, лекарственных особенностях, применении в народной медицине, а также о его биологическом значении.

Ключевые слова: Водяной перец (*Persicaria hydropiper* L) — представитель семейства тороновых, содержащий флавоноиды, рамназин, изорамнетин, рутины, кверцетин, гиперозид, кверцетин, кемпферол, витамины С, К, каротин, сахара, органические кислоты, дубильные вещества и жгучие вещества.

Abstract: This article presents information provided by the author on the Water pepper (*Persicaria hydropiper* L) plant based on available scientific literature, including the health benefits and medicinal properties of plant products, laboratory studies, therapeutic characteristics, applications in folk medicine, and its biological significance.

Keywords: Water pepper (*Persicaria hydropiper* L) is a member of the Toron family, containing flavonoids, rhamnazine, isorhamnetin, rutin, quercetin, hyperoside, quercetin, kaempferol, vitamins C, K, carotene, sugars, organic acids, tannins, and pungent substances.

Dorivor o'simliklar qadimdan insoniyat salomatligini saqlash va davolashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston xududida xalq tabobati amaliyotida ularning qo'llanilishi asrlar davomida sinovlardan o'tqizilib, zamonaviy farmatsevtika va kimyo sanoatida juda ham keng, ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va tadqiq qilinmoqda. So'nggi yillarda biologik faol moddalarga boy bo'lgan o'simliklarni ilmiy asosda o'rganish, ularning farmatsevtik xususiyatlarini aniqlash va sanoat miqyosida foydalanish masalasi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, o'simligi xalq tabobatida qadimdan ishlatilgan bo'lsa-da, ularning fitokimyoviy tarkibi va tovarlar kimyosidagi farmatsevtik ahamiyati yetarlicha tadqiq qilinmagan. Suv qalampir (*Persicaria hydropiper* L.) Ushbu maqolada mazkur o'simliklarning biofaol moddalari, ularning farmatsevtik va xalq tabobatidagi o'rni ilmiy tahlil qilinadi. Suv qalampir (*Persicaria hydropiper* L.) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Asosan ildiz qismi dorivor ahamiyatga ega bo'lib, o'tkir ta'm va hidga ega efir moylarini saqlaydi. Ildizida glyukozinolatlilar (asosan sinigrin) ko'p bo'lib, u parchalanganda allylizotiosianat hosil qiladi. Bu modda kuchli bakteritsid va antiseptik ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'simlikda S vitamini (askorbin kislotasi), flavonoidlar, fenolik birikmalar, mineral tuzlar mavjud.

Biologik ahamiyati

Suvqalampir (*Bodyanoy peres* — *Polygonum hydropiper* L.) — toron turkumiga kiruvchi o'simlik bo'lib, uni *Polygonum hydropiper* nomi bilan atashgan. Ayni vaqtda ham ko'plab botanikaga oid adabiyotlarda mana shu eski nomi bilan uchrab turadi. Suvqalampir torondoshlar oilasiga mansub bir yillik o'tsimon o'simlik bo'lib, bo'yi 30-60 sm gacha yetadi. Poyasi tik o'suvchi silindirsimon, bo'g'inli, qizg'ish rangli, asos qismidan boshlab shoxlangan. Suvqalampirning gullari oqish-yashil yoki qizil rangda va mayda bo'ladi. Gullari siyrak boshqsimon to'pgulni tashkil qiladi, mevasi uch qirrali yong'oqcha. Mevasi 2,2-3,5 mm keladigan yong'oqcha. Iyun-sentyabr oylarida gullaydi. Mevasi avgust-oktyabr oylarida yetiladi. Urug'idan juda oson ko'payadi.

Tarqalishi. Suvqalampir keng tarqalgan o'simliklardan biri bo'lib, [Yevropa](#), [Osiyo](#), [Shimoliy Afrika](#) va [Shimoliy Amerikaning](#) ko'pgina davlatlarida daryo va suv yoqalarida o'sadi. U O'zbekistonning [Toshkent](#), [Sirdaryo](#), [Samarqand](#), [Qashqadaryo](#), [Buxoro](#) viloyatlarini ng namli yerlarida, ko'pincha, ariq, jilg'a, ko'l, zovur, hovuz bo'ylarida tabiiy holda uchraydi. Suvqalampir unumdor va mo'l suvli tuproqlarda o'sadi.

Dorivorlik xususiyati

Suvqalampir o'ti tarkibida flavonoid, ramnazin, izoramnetin, rutin, kversitrin, giperozid, kversetin, kemfrevol, vitaminlardan [C](#), [K](#), [karotin](#), qandlar, organik kislotalar, oshlovchi moddalar, o'tkir ta'mli moddalar bor. O'simlik ildizlarida esa antraglyukozidlar mavjud.

Xalq tabobatida qo'llanishi

Xalq tabobatida suvqalampir o'simligi keng foydalansa bo'ladigan dorivor o'simliklardan biri xisoblanadi, Suv qalampirning preparatlari bachadondan qon ketishida, juda ko'p va og'riqli xayz paytida qo'llaniladi. Uning ekstraktlari qon bilan yo'talgan, siydik pufagidan qon ketgan, oshqozon va georoidal qon ketishi ro'y bergan bemorlarda ishlatilishi mumkin. Suvqalampir damlamasi bavoasil, qon ketishi

bilan bog‘liq ichak kasalliklari, bachadondan bemavrid qon ketganda hamda og‘riqni qoldiruvchi sifatida davolashda ishlatiladi. Uning qaynatmasidan teri kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Jumladan, chipqon, [Qorason](#) (gangrena) kasalliklarida suvqalampir dorisidan foydalaniladi. Buning uchun 50 gr suvqalampir o‘ti bilan 400 gr suvdan qaynatma tayyorlanib teri atroflari yuviladi. O‘simlikdan damlama tayyorlash uchun og‘zi yopiladigan idishga bir stakan qaynab turgan suv quyib, uning ustiga suvqalampirning maydalangan yer usti qismidan bir osh qoshiq solinadi va 1 soat davomida damlab qo‘yiladi. So‘ngra dokada suziladi. Damlamadan kuniga 3 mahal ovqatdan oldin bir qoshiqdan ichiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Duke, J. A. (2002). *Handbook of Medicinal Herbs* (2nd ed.). CRC Press.
2. Kowalski, R., & Wolski, T. (2012). Chemical composition of horseradish roots (*Armoracia rusticana*). *Food Chemistry*, 133(3), 1251–1256. <https://doi.org/10.1016/j.foodchem.2012.02.022>
3. Smith, R. M. (2017). Phytochemical screening and pharmacological potential of *Armoracia rusticana*. *Pharmaceutical Biology*, 55(1), 1432–1440. <https://doi.org/10.1080/13880209.2017.1307425>
4. Vlase, L., Benedec, D., Hanganu, D., Damian, G., Csillag, I., Sevastre, B., ... & Toma, C. (2014). Evaluation of antioxidant and antimicrobial activities and phenolic profile for *Armoracia rusticana*. *Pharmacognosy Magazine*, 10(39), 352–356. <https://doi.org/10.4103/0973-1296.139782>
5. Ivanova, D., Gerova, D., Chervenkov, T., & Yankova, T. (2005). Polyphenols and antioxidant capacity of Bulgarian medicinal plants. *Journal of Ethnopharmacology*, 96(1-2), 145–150. <https://doi.org/10.1016/j.jep.2004.08.033>
6. Kapoor, V. P. (2010). Herbal bioactive compounds and their pharmacological activities. *Journal of Ethnopharmacology*, 128(2), 221–234. <https://doi.org/10.1016/j.jep.2010.01.003>
7. Blazewicz-Woźniak, M., & Michowska, A. E. (2016). Biological activity of horseradish (*Armoracia rusticana* L.) and its possible applications. *Acta Scientiarum Polonorum Hortorum Cultus*, 15(6), 151–166.
8. Dorivor o‘simliklar atlas. 218-219